

**SUDLAR FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI**

To'raqulova Madina Ixtiyor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, Advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sud tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini odil sudlov jarayonlariga joriy etishning huquqiy asoslari, imkoniyatlari hamda muammolari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqot 2020-yildan buyon amalga oshirilayotgan izchil islohotlar zanjirini "Adolat" axborot tizimidan "Raqamli sud" konsepsiyasigacha qamrab oladi. Maqolada raqamli dalillar, elektron sud ishi yuritish, sun'iy intellekt yordamida qaror qabul qilish, shuningdek axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sifatida maqola qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif-mulohazalar bilan yakunlanadi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli sud, sun'iy intellekt, elektron sud ishi yuritish, raqamli dalillar, "Raqamli sud" konsepsiyasi, axborot xavfsizligi, odil sudlov, "Adolat" axborot tizimi.*

**ОЦИФРОВКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДОВ И ИСКУССТВЕННЫЙ
ИНТЕЛЛЕКТ: ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

Тўрақулова Мадина Ихтиёр қизи

Ташкентский государственный юридический университет, магистрант
направления «Адвокатская деятельность»

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно исследуются правовые основы, возможности и проблемы цифровизации судебной системы Республики Узбекистан, а также внедрения технологий искусственного интеллекта в

процессы отправления правосудия. Исследование охватывает цепочку последовательных реформ, осуществляемых с 2020 года, от информационной системы «Адолат» до концепции «Цифровой суд». В статье проводится правовой анализ вопросов, связанных с цифровыми доказательствами, электронным судопроизводством, принятием решений с применением искусственного интеллекта, а также обеспечением информационной безопасности и защиты персональных данных. В качестве результатов исследования статья завершается научно обоснованными предложениями и рекомендациями, направленными на выявление и устранение существующих пробелов в законодательстве.

Ключевые слова: цифровой суд, искусственный интеллект, электронное судопроизводство, цифровые доказательства, концепция «Цифровой суд», информационная безопасность, правосудие, информационная система «Адолат».

DIGITALIZATION OF JUDICIAL ACTIVITIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: LEGAL CHALLENGES AND PROSPECTS

Turaqulova Madina Ikhtiyor qizi

Tashkent State University of Law, Master's Student in Advocacy

Abstract. *This article provides a comprehensive examination of the legal foundations, opportunities, and challenges associated with the digitalization of the judicial system of the Republic of Uzbekistan and the integration of artificial intelligence technologies into the administration of justice. The study encompasses the chain of consistent reforms implemented since 2020 from the “Adolat” information system to the “Digital Court” concept. The article conducts a legal*

analysis of issues related to digital evidence, electronic court proceedings, AI-assisted decision-making, as well as information security and personal data protection. As the outcome of the research, the article concludes with scientifically grounded proposals and recommendations aimed at identifying and addressing existing gaps in legislation.

Keywords: *digital court, artificial intelligence, electronic court proceedings, digital evidence, “Digital Court” concept, information security, justice, “Adolat” information system.*

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat institutlarini, jumladan, sud-huquq tizimini tubdan o'zgartirib, yangi imkoniyatlar hamda o'ziga xos huquqiy muammolar majmuasini yuzaga keltirmoqda. Raqamli transformatsiya bir tomondan odil sudlovga erishishni osonlashtirishi, sud jarayonlarining shaffofligini ta'minlashi va sud tizimiga bo'lgan fuqarolar ishonchini mustahkamlashi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, huquqiy tartibga solish, dalillarni baholash va insonning asosiy huquqlari bilan bog'liq bir qancha fundamental savollarni kun tartibiga qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishda 2020-yildan boshlab izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroridan tortib, 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga qadar bu yo'nalishdagi normativ-huquqiy baza keng ko'lamda shakllantirilib kelmoqda.

Shu bilan birga, sud faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellektni odil sudlov jarayoniga tatbiq etishning huquqiy mexanizmlari, chegara va chegaralanishlar masalasi mamlakatimiz yuridik fanida yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirish, mavjud normativ-huquqiy baza va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida raqamli sud tizimining kontseptual asoslarini belgilash va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Asosiy qism.

O'zbekistonda sud tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida 2017-yildayoq belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3250-son Qaroriga binoan 2017–2020-yillarda sudlarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi tasdiqlangan edi. Mazkur dastur doirasida masofadan turib sudga murojaat qilish, sud majlislarida videokonferensaloqa tizimidan foydalanish, sudyalarning o'rtasida ishlarni avtomatik taqsimlash, sud qarorlarini internet tarmog'ida e'lon qilish va ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimlari muvaffaqiyatli joriy etildi.¹

2020-yilda ushbu islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. PQ-4818-son Qarorga ko'ra, "Adolat" axborot tizimlari kompleksini joriy etish ko'zda tutildi. Ushbu tizim bir nechta muhim funksiyalarni o'z ichiga oladi. Xususan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlarni faqat elektron shaklda taqdim etish, manfaatdor shaxslar tomonidan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3250-son Qarori bilan tasdiqlangan 2017–2020-yillarda Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi.
SJIF: 5.051

ko'rib chiqish jarayonini onlayn kuzatib borish, sud majlisi ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlar va hujjatlarni elektron shaklda yuborish hamda sud hujjatlarini avtomatlashtirilgan ravishda shakllantirish.²

2025-yil 21-avgustda imzolangan PF-140-son Farmon O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirishda sifat jihatidan yangi davrni boshlab berdi. Farmonning I va II bo'limlari asosida belgilangan "Raqamli sud" konsepsiyasiga ko'ra sud ishlarini yuritishda qog'oz shaklidan to'liq voz kechish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, sun'iy intellekt yordamida sud xarajatlarini hisoblash, sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash hamda sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish belgilandi.³

Raqamli dalillar muammosi zamonaviy sud amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. B. Xamidovning tadqiqotiga ko'ra, raqamli dalillar deganda har qanday raqamli shaklda saqlanadigan va uzatiladigan, sud jarayonida isbotlash funksiyasini bajaradigan ma'lumotlar tushuniladi. Bu tushuncha o'z ichiga elektron xatlar, raqamli fotosuratlar, video yozuvlar, server jurnallari, ma'lumotlar bazasi yozuvlari, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar va boshqa elektron axborotni qamrab oladi.⁴

Mamlakatimizda raqamli dalillarning huquqiy maqomini tartibga soluvchi maxsus normalar hali to'liq shakllantirilmagan. Amaldagi protsessual qonunchilik raqamli muhitga moslashtirilmaganligi sabab bir qancha muammolar yuzaga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son Qarori, 5-band. // <https://lex.uz/mact/-4979896>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni, II bo'lim, 3-band. // <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>.

⁴ Xamidov B.X. Raqamli dalillar va sud jarayoni: sudlarda yangi ko'nikmalarni shakllantirish zaruriyati // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. — 2026. — Vol. 4, № 01. — B. 117–121. <https://scienceinno.org/index.php/jsiru/article/view/84>.

kelmoqda. Jumladan, sud va tergov organlarining raqamli dalillarni to'plash bo'yicha yagona standart qoidalar mavjud emasligi, raqamli kriminalistika (digital forensics) sohasida ixtisoslashtirilgan ekspert standartlarining yo'qligi hamda raqamli dalillarni saqlash, uzatish va yo'q qilish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlarning cheklanganligini sanab o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Hasanov M.B. ta'kidlaganidek, huquq tizimini raqamlashtirish jarayoni elektron hujjatlar va elektron huquqiy munosabatlarning huquqiy mohiyatini to'g'ri aniqlash, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi.⁵

Raqamli dalillar bilan ishlashda amaliyotda tez-tez duch kelinadigan muammolardan biri chain of custody talabiga rioya qilmaslik. Xalqaro standartlarga (ISO/IEC 27037:2012) ko'ra, raqamli dalil yig'ilgan paytdan e'tiboran har bir murojaat va o'zgarish alohida qayd etilishi, dalilning yaxlitligi tasdiqlangan holda saqlanishi lozim. Ushbu talablar O'zbekiston qonunchiligiga to'liq kiritilmagan.

Sun'iy intellektni sud faoliyatiga joriy etish eng keskin huquqiy muammolardan birini sud mustaqilligi va sudyaning shaxsiy ishonchiga asoslangan qaror qabul qilish huquqini taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasi hamda "Sudlar to'g'risida"gi qonunning tegishli moddalari sud mustaqilligini kafolatlasakda, texnologiyalar sun'iy intellekt tavsiyanomalarini qay darajada hisobga olish lozim ekanligi masalasini tartibga soluvchi me'yor mavjud emas.

⁵ Hasanov M.B. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi sharoitida huquq tizimini raqamlashtirish va raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanish masalalari // Modern education and development. — 2026. — Vol. 42, № 4. <https://journals.org/index.php/mod/article/view/16436>.

PF-140-son Farmonda sun'iy intellektning vazifasi aniq belgilangan. Unga ko'ra sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida tayyorlash, sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish, sud muhokamasining taxminiy natijasi va sarflanadigan xarajatlarni hisoblash. Ushbu vazifalarda sun'iy intellekt yordamchi vosita sifatida qarab va yakuniy qaror sudyaga qoldirilgan. Bu yondashuv xalqaro amaliyotdagi "AI as a tool, not a decision-maker" tamoyiliga to'liq mos keladi.⁶

Sud jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashni taqazo etadi. PF-140-son Farmonning III bo'limida 2026-yildan boshlab "my.sud.uz" interaktiv xizmatlar portalida sun'iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchi yaratish ko'zda tutilgan. Ushbu virtual maslahatchi fuqarolarning huquqiy ma'lumotlari, taraf maqomidagi shaxsiy holatlari va boshqa maxfiy axborot bilan muloqotda bo'ladi.⁷

Raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligi va kibertahdidlardan himoya masalasi alohida muhim o'rin tutadi. Sud axborot tizimlari davlatning strategik infratuzilmasiga kirishini hisobga olsak, ularga kiberhujumlar faqat texnik zarar keltirish bilan cheklanmay, balki odil sudlovning amalga oshirilishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining barqarorligini ta'minlash, ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini kafolatlash bu nafaqat texnologik, balki konstitutsiyaviy-huquqiy masaladir.

Raqamli sud tizimlarini joriy etish bo'yicha xalqaro amaliyotni ko'rib chiqish O'zbekiston tajribasini to'g'ri baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni, II bo'lim, 3-band (z)-bandi va V bo'lim, 11-band. // <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni, III bo'lim, 6-band (v)-bandi. // <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>.

Xususan, Singapur, Estoniya va Xitoy raqamli sud tizimlari rivojlanish darajasi jihatidan dunyoda ilg'or o'rinlarda turadi.

Singapurning ICMS (Integrated Case Management System) tizimi to'liq raqamli sud ishi yuritishni amalga oshirib, barcha sud hujjatlari, da'volarning to'lov va ko'rib chiqish jarayonlari elektronlashtirilgan. Estonia davlatining "e-Court" tizimi o'z navbatida yuqori darajadagi kiberxavfsizlik va autentifikatsiya mexanizmlariga ega bo'lib, barcha sud muomalasi raqamli kalit orqali imzolanishi shart. Xitoyda esa sun'iy intellekt yordamida ishlarni saralash, sudlarga tarqatish va hatto ayrim toifalardagi ishlar bo'yicha hukmni tavsiya etish tizimlari ishga tushirilgan. Biroq ushbu tajribalar bir qancha xavf-xatarlarni ham namoyon etgan. Jumladan, Xitoy tajribasida sun'iy intellektning hukmni tavsiya etishi huquqiy nuqtai nazardan katta munozaralarga sabab bo'lgan va sud mustaqilligi prinsipi bilan muvofiqligi savol ostida qolgan. Yevropa Ittifoqi ham 2024-yilda qabul qilingan AI Act orqali sud jarayonlarida yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlarining qo'llanishini qat'iy tartibga solgan.

O'zbekiston tajribasi bir qancha o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Birinchidan, islohotlar qisqa muddatda (2020–2025-yillar) ko'p qirrali va izchil tarzda amalga oshirildi. Ikkinchidan, raqamlashtirish faqat texnologik emas, balki kompleks instituttsional o'zgarishlar bilan birga olib borildi ya'ni Oliy sudda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt departamentining tashkil etilishini buning yaqqol dalili sifatida ko'rsatsak mubolag'a bo'lmaydi. Uchinchidan, 2025-yilgi Farmon ijrosi doirasida sun'iy intellekt asosida ishlaydigan mahalliy tizimlarni yaratish ko'zda tutilgani, O'zbekistonning raqamli suvereniteti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan tahlil asosida O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

Raqamli dalillar haqida maxsus qonun yoki kodeks qoidalari qabul qilinsin. Ushbu normativ hujjatda raqamli dalillarning ta'rifi, turlari, to'plash tartibi, saqlash talablari, chain of custody mexanizmi, xesh-qiyamatlar bilan ishlash qoidalari hamda raqamli kriminalistika ekspertizasining protsessual maqomi mustahkamlanishi lozim. NIST SP 800-86 va ISO/IEC 27037:2012 standartlari ushbu qonun uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.⁸

Sud axborot tizimlari uchun majburiy kiberxavfsizlik sertifikatizatsiyasi va muntazam audit talabi belgilansin. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunchilikka sud axborot tizimlariga nisbatan qo'shimcha himoya talablari kiritilishi, shuningdek, kiberhujum hollarida mas'ul shaxslarning huquqiy javobgarligi mustahkamlanishi lozim.

Sudyalar va sud xodimlarining raqamli savodxonligi bo'yicha majburiy sertifikatizatsiya tizimi joriy etilsin. Farmonning I bo'limida "Kiber huquq" yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va xodimlarning raqamli malakasini oshirish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ushbu vakolat va bilimlarni tasdiqlash uchun standartlashtirilgan sertifikatizatsiya tizimi zarur⁹.

XULOSA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellektni odil sudlov jarayoniga joriy etishning huquqiy masalalarini

⁸ National Institute of Standards and Technology (NIST). Special Publication 800-86: Guide to Integrating Forensic Techniques into Incident Response. — Gaithersburg, MD: NIST; ISO/IEC 27037:2012. Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence. — Geneva: ISO/IEC.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni, I bo'lim, 1-band (d)-bandi. // <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>.

kompleks tahlil qildi. Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtirib asosiy xulosaga kelish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston 2020–2025-yillar davomida sud tizimini raqamlashtirishda muhim yutuqlarga erishdi. “Adolat” axborot tizimining joriy etilishidan tortib “Raqamli sud” konsepsiyasiga qadar izchil va tizimli islohotlar amalga oshirildi. PF-140-son Farmon bu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi va sun'iy intellektni sudlov faoliyatiga tatbiq etishning huquqiy-tashkiliy zaminini yaratdi.

Ikkinchidan, raqamli dalillarning huquqiy maqomini tartibga soluvchi maxsus me'yoriy bazaning yo'qligi, sun'iy intellekt tizimlari uchun algoritmik shaffoflik talablarining belgilanmaganligi va shaxsiy ma'lumotlarni sun'iy intellekt tizimlarida qayta ishlashning maxsus tartib-qoidalarining ishlab chiqilmaganligi amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Uchinchidan, xalqaro tajriba ko'rsatadiki, sun'iy intellektni sud faoliyatiga tatbiq etishda asosiy xavf sud mustaqilligi prinsipi va algoritmik shaffoflik talablariga rioya qilmaslikdir. O'zbekiston ushbu xavf-xatarlarni o'z qonunchiligida e'tiborga olishi va profilaktik huquqiy mexanizmlar yaratishi zarur.

To'rtinchidan, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalasi raqamli sud tizimining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash shoshilinch zarurat hisoblanadi.

Xulosaviy fikr sifatida ta'kidlash joizki, sun'iy intellektni sud faoliyatiga tatbiq etish nafaqat texnik ehtiyoj, balki muhim huquqiy va axloqiy masaladir. Raqamli dalillarni samarali qo'llash huquqiy bilimlar, zamonaviy texnik ko'nikmalar va yuqori axloqiy madaniyat uyg'unligini talab etadi. Bu kompleks

yondashuv odil sudlovni ta'minlash va sud qarorlariga bo'lgan fuqarolar ishonchini mustahkamlashning muhim omili sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023-y // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-154-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5534923>
3. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4396419>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4818-son Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-4979896>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-140son farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>
6. Xamidov B.X. (2026). "Raqamli dalillar va sud jarayoni: sudlarda yangi ko'nikmalarni shakllantirish zaruriyati" Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, , 117–121. <https://scienceinno.org/index.php/jsiru/article/view/84>
7. Hasanov M.B. (2026). Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi sharoitida huquq tizimini raqamlashtirish va raqamli axborot texnologiyalarining

rivojlanish masalalari. Modern education and development, 42(4). <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/360>

8. Casey, E. (2011). Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet (3rd ed.). London: Academic Press.

9. Solove, D.J. (2008). Understanding Privacy. Cambridge, MA: Harvard University Press.

10. Carrier, B. (2005). File System Forensic Analysis. Boston: Addison-Wesley.

11. National Institute of Standards and Technology (NIST). Special Publication 800-86: Guide to Integrating Forensic Techniques into Incident Response. Gaithersburg, MD: NIST.

12. ISO/IEC 27037:2012. Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence. Geneva: ISO/IEC.

13. European Parliament and Council Regulation (EU) 2024/1689 on Artificial Intelligence (AI Act).